XALQ DEPUTATLARI KOGON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-5-016-2-208-K/24 Kogon shahar

Kogon shahar boʻyicha 2025-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan yer soligʻi, suv resurslaridan foydalanganlik uchun hamda yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliqlari hisoblab chiqarishda qoʻllaniladigan koeffisiyentlarni tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 429 va 437-moddalari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk soligʻini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida”gi PF-6121-sonli Farmoni, Soliq kodeksining 445, 452-moddalariga kiritilayotgan oʻzgartirishlar hamda Xalq deputatlari Buxoro viloyat kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi “Buxoro viloyati boʻyicha 2025-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan ayrim soliqlarga qoʻllaniladigan koeffisiyentlar hamda mutloq miqdor summalarini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi VII-4-025-2-0-K/24-sonli qaroriga asosan Kogon shahri boʻyicha 2025-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan yer soligʻi, suv resurslaridan foydalanganlik uchun hamda yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliqlari hisoblab chiqarishda qoʻllaniladigan koeffitsiyentlarni tasdiqlash maqsadida Xalq deputatlari Kogon shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Xalq deputatlari Buxoro viloyat kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi “Buxoro viloyati boʻyicha 2025-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan ayrim soliqlarga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar hamda mutloq miqdor summalarini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi VII-4-025-2-0-K/24-sonli qaroriga asosan Kogon shahar boʻyicha yuridik shaxslarning qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yerlari bazaviy soliq stavkasi 1 gektar uchun miqdori 48 312 000 soʻm hamda jismoniy shaxslarga 1 kv.m uchun bazaviy soliq stavkasining miqdori 384 soʻm belgilanishi maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. Kogon shahar iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻi (N.Eshmurodov) hamda shahar soliq inspeksiyasi boshligʻi (K.Axmadova)larning mahalla fuqarolar yigʻinlarining iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda 2025-yil uchun belgilangan shahar mahalliy byudjet prognozidan kelib chiqib, yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan yer soligʻi, suv resurslaridan foydalanganlik uchun hamda yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliqlarini hisoblab chiqarishda kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsiyentlarni qoʻllash yuzasidan takliflari inobatga olinsin.

3. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlarning stavkalarini aniqlash uchun qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:

- qishloq xoʻjaligi uchun moʻljallanmagan yerlarning 1 gektariga yuridik shaxslar boʻyicha 2025-yilda Kogon shahar uchun belgilangan yer soligʻining bazaviy soliq stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari mahalalar kesimida 1-ilovaga;

- jismoniy shaxslar boʻyicha (dehqon xoʻjaligini yuritish uchun berilgan qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlardan tashqari) 2025-yilda Kogon shahar uchun 1 kv.m. yerga belgilangan bazaviy soliq stavkalariga qoʻlaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari mahalalar kesimida 2-ilovaga;

- 2025-yilda Kogon shahar boʻyicha yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliqlari hisoblab chiqarishda qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. 2025-yilda Kogon shahar uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq boʻyicha Soliq kodeksining 445-moddasi bilan tasdiqlanadigan stavkalar oʻzgarishsiz qoldirilsin.

5. Xalq deputatlari shahar Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi VI-86-208-2-208-K/23-sonli qarori 2025-yil 1-yanvardan oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblansin.

6. Shahar hokimligi ushbu qaror bilan maʼqullangan Kogon shahar boʻyicha 2025-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan yer soligʻi, suv resurslaridan foydalanganlik uchun hamda yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliqlari hisoblab chiqarishda qoʻllaniladigan koeffitsiyentlarni ommaviy axborot vositalarida va shahar hokimligining rasmiy vebsaytida eʼlon qilsin.

7. Mazkur qaror bajarilishining nazorati Xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi (J.Do‘stov) va shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (A.Rajabov) zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror 2025-yil 1-yanvardan eʼtiboran kuchga kiradi.

Sessiyada raislik qiluvchi YANGIYEV ALIMJON XOSHIMOVICH

Xalq deputatlari Kogon shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-016-2-208-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslarga yer solig‘i stavkasi

so‘mda

T/R	Hududlar	2025-yil uchun	
		Xalq deputatlari shahar Kengashi qaroriga asosan qo‘llanilgan koeffitsiyent	2025-yil soliq stavkasi (1 gektar uchun)
Kogon shahri (Buxoro viloyati Kengashi tomonidan tasdiqlangan stavka)		**1,00**	**48 312 000,0**
1	Arabxona MFY	0,97	46 862 640,0
2	Bunyodkor MFY	1,13	54 592 560,0
3	Maxtumquli MFY	1,13	54 592 560,0
4	Zirabod MFY	0,97	46 862 640,0
5	Furqat MFY	0,97	46 862 640,0
6	Abdulla Qodiriy MFY	0,97	46 862 640,0
7	Alisher Navoiy MFY	1,04	50 244 480,0
8	Ziyokor MFY	0,97	46 862 640,0
9	Xo‘ja Bargi MFY	1,13	54 592 560,0
10	Bobur MFY	0,97	46 862 640,0
11	Adolat MFY	0,97	46 862 640,0
12	Temiryo‘lchi MFY	1,13	54 592 560,0
13	Amir Temur MFY	0,97	46 862 640,0
14	Istiqlol MFY	0,97	46 862 640,0
15	Navzirabod MFY	1,13	54 592 560,0
16	Buxoroi Sharif MFY	0,97	46 862 640,0
17	Do‘stlik mFY	0,97	46 862 640,0
18	Beruniy MFY	0,97	46 862 640,0
19	Turkiston MFY	1,04	50 244 480,0
20	Mirzo Ulug‘bek MFY	0,97	46 862 640,0
21	Mustaqillik MFY	0,97	46 862 640,0
22	Vatanparvar MFY	0,97	46 862 640,0

Xalq deputatlari Kogon shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-016-2-208-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

so‘mda

T/R	Hududlar	2025-yil uchun	
		Xalq deputatlari shahar Kengashi qaroriga asosan qo‘llanilgan koeffitsiyent	2025-yil soliq stavkasi
Kogon shahri (Buxoro viloyat kengashi tomonidan tasdiqlangan stavka)		**1,00**	**384,0**
1	Arabxona MFY	1,00	384,0
2	Bunyodkor MFY	1,00	384,0
3	Maxtumquli MFY	1,00	384,0
4	Zirobod MFY	1,00	384,0
5	Furqat MFY	1,00	384,0
6	Abdulla Qodiriy MFY	1,00	384,0
7	Alisher Navoiy MFY	1,00	384,0
8	Ziyokor MFY	1,00	384,0
9	Xo‘ja Bargi MFY	1,00	384,0
10	Bobur MFY	1,00	384,0
11	Adolat MFY	1,00	384,0
12	Temiryo‘lchi MFY	1,00	384,0
13	Amir Temur MFY	1,00	384,0
14	Istiqlol MFY	1,00	384,0
15	Navzirabod MFY	1,00	384,0
16	Buxoroi Sharif MFY	1,00	384,0
17	Do‘stlik MFY	1,00	384,0
18	Beruniy MFY	1,00	384,0
19	Turkiston MFY	1,00	384,0
20	Mirzo Ulug‘bek MFY	1,00	384,0
21	Mustaqillik MFY	1,00	384,0
22	Vatanparvar MFY	1,00	384,0

Xalq deputatlari Kogon shahar Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-016-2-208-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025-yil uchun Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

№	Hudud nomi	Xalq deputatlari Kengashi tomonidan 2025 yil uchun qo‘llanilgan koeffitsiyentlar (so‘mda)													
		Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertine so‘m/m.kub		Tabiiy bezaktoshdan bloklar so‘m/m.kub		Marmar so‘m/m.kub		Granitlar so‘m/m.kub		Gips toshi, gips va angidrid, ganch so‘m/tonna		G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar so‘m/m.kub		Qum-shag‘al aralashmasi qurilish qumi, qumtoshlar so‘m/m.kub	
1	*2*	*Koeffitsiyent*	*Soliq stavkasi*	*Koef-fitsiyent*	*Soliq stavkasi*	*Koef-fitsiyent*	*Soliq stavkasi*	*Koef-fitsiyent*	*Soliq stavkasi*	*Koef-fitsiyent*	*Soliq stavkasi*	*Koef-fitsiyent*	*Soliq stavkasi*	*Koef-fitsiyent*	*Soliq stavkasi*
1	**Kogon shahri**	**1,10**	**6 776,0**	**1,00**	**10 000,0**	**1,00**	**20 000,0**	**1,00**	**30 000,0**	**1,05**	**16 747,5**	**1,15**	**5 313,0**	**1,10**	**5 500,0**